

DARAJA BILDIRUVCHI SO'ZLARNING TURLARI

Mirzakarimova Z.D.
TDTU OF f.f.n., dotsent

Annotatsiya. Maqolada daraja bildiruvchi so'zlarning ba'zi xususiyatlari hisobga olingan holda turlarga ajratish masalasi haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: tasdiq ma'no darajasini bildiruvchi so'z, semantika, uslubiy bo'yoq, variantlanish, ma'no darajasi, neytral so'zlar, uslubiy bo'yoqli so'zlar, ekspressiv bo'yoq, subyektiv munosabat, variantsiz daraja bildiruvchi so'zlar, variantli daraja bildiruvchi so'zlar.

O'zbek tilshunosligidagina emas, umuman turkologiyada ham tasdiq ma'no darajasini bildiruvchi so'zlarni biror nuqtai nazardan turlarga ajratib ko'rilgan emas. A.Xamitovning nomzodlik dissertatsiyasida ham ularni turlarga ajratib ko'rilmagan. Ammo bunday daraja bildiruvchi so'zlar o'zlarining ba'zi xususiyatlarit bilan turlarga guruhlanishi mumkin. Masalan, daraja bildiruvchi so'zlar o'zi bog'langan so'z ma'nosini faqat orttirib ko'rsatishi yoki so'z ma'nosining daraja cho'qqisini ifodalashi jihatidan, uslubiy bo'yoqqa egaligi va qanday uslubiy bo'yoqliligi jihatidan; variantlanishi jihatidan o'zaro farqlanadi. A.Xamitovning nomzodlik dissertatsiyasiga nazar tashlar ekanmiz, har bir daraja bildiruvchi so'z uchun berilgan semantik xarakterlarda ularning o'zaro farqlanishi va o'zaro o'xshash o'rinlari yaqqol ko'rinib turadi.(1)

Demak, ularni ayrim nuqtai nazarlar bilan turlarga ajratish mumkin. Shu nazarda tutib, tasdiq ma'no darajasini bildiruvchi so'zlarga ajratish mumkin deb bildik. Quyidagi nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, daraja bildiruvchi so'zlar quyidagi turlarga ajraladi.

- 1.Semantik nuqtai nazardan;
- 2.Uslubiy bo'yoqqa egalik nuqtai nazaridan;
- 3.Variantlanish nuqtai nazaridan;

Birinchi nuqtai nazar bo'yicha daraja bildiruvchi so'zlar o'zining semantik xususiyati bilan turlarga ajratiladi. Ular bu jihatdan 2 turga bo'linadi:

- 1.Ma'no darajasini orttiruvchi so'zlar;
- 2.Ma'no daraja cho'qqisini ko'rsatuvchi so'zlar;

Ma'no darajasini orttiruvchi so'zlar o'zi bog'lagan so'z sifat, ravish, fe'l va shulardan yasalgan ot turkumiga oid so'zlarning ma'no darajasini turli bosqichlarda orttirib kuchaytirib keladi va bu orttirish bir-biriga nisbatan kuchli yoki kuchsizlik jihatidan farqlanadi. Bunga biz keyingi bobda to'xtalamiz. Bunday xususiyatga ega bo'lgan so'zlar quyidagilar: g'oyat, juda, behad, toza, bir, biram, zo'r, ko'p, naqadar, mutlaqo, obdon singarilar.

Masalan: Qishloqdan kecha olib qochgan edim, -javob berdi To'g'onbek, -g'oyat nozik husni bor (Oybek). Uningcha, ish juda qo'rqinchli edi (A.Qodiriy). Uchinchi brigadir toza sharmanda qildi (G'.G'ulom). Bir alam qildi, bir alam qildi. Nahotki tushimda ham sizning diydoringizga to'yamasam ("Toshkent oqshomi" gazetasidan).

Bu misollardagi barcha daraja bildiruvchi so'zlar o'zi bog'langan so'zning ma'no darajasini faqat turli bosqichda orttirib, kuchaytirib kelgan.

Ma'no darajasining cho'qqisini ko'rsatib keluvchi so'zlar. Bu turdagi daraja bildiruvchilar nihoyatda va eng so'zlaridan iborat bo'lib, ular o'zi bog'langan so'z ma'no darajasining cho'qqisini ko'rsatadi.

Masalan: Tirikchilik toshi nihoyatda og'ir bo'lar ekan (G'.G'ulom). Fmaldorlar, hatto viloyat hokimlari ustidan har kun nihoyatda ko'p shikoyatlar yog'ila boshladi (Oybek). Qishloqda yerni eng yaxshi ishlaydigan odam shu hisoblanadi (H.Olimjon).

Bu misollardagi nihoyatda va eng so'zlari o'zi bog'langan so'z ma'no darajasini orttirib, uning cho'qqisini ko'rsatgan. Eng so'zi esa bu xususiyatlardan tashqari o'zi bog'langan so'z ifodasini chegaralab ham bergan. Bular g'oyat, juda, behad, toza so'zlari ko'rsatgan ma'no darajasidan ham so'nggi, oxirgi nuqtani ko'rsatish bilan xarakterlanadi.

Demak, semantik nuqtai nazardan daraja bildiruvchi so'zlar ikki turga bo'linib, biri o'zi bog'lagan so'z ma'no darajasini orttirishdagi bosqichni ko'rsatsa, ikkinchisi esa ma'no darajasining cho'qqisini ko'rsatar ekan.

Ikkinchi nuqtai nazardan daraja bildiruvchi so'zlarni uslubiy bo'yoqqa egaligi jihatidan turlarga ajratish maqsad qilib qo'yilgan edi. Bu jihatdan daraja bildiruvchi so'zlar ikkiga ajratiladi:

- 1.Ma'no darajasini bildiruvchi neytral so'zlar
- 2.Ma'no darajasini bildiruvchi uslubiy bo'yoqli so'zlar

Neytral ma'no darajasini ko'rsatuvchi so'zlar: ko'p, juda, nihoyat va eng kabilar.

Bular o'zi bog'lagan so'zning ma'no darajasini faqat orttirib, kuchaytirib keladi. Ular bog'langan so'zning ma'nosi uslubiy jihatdan neytralligicha qoladi, ya'ni hech qanday bo'yoqqa ega bo'lmaydi.

Masalan: Men juda ajablandim va o'ziga so'roq berdim (H.Olimjon). Mehmon ko'p to'g'ri aytdilar (Oybek). Qishloqning eng e'tiborli odamlari nimaga kirmabdi, -deb o'ylab qoldi (H.Olimjon).

Bu gaplardagi daraja bildiruvchi so'zlar o'zi bog'lagan so'zning ma'no darajasini neytral holatda kuchaytirib, orttirib kelgan, ya'ni hech qanday bo'yoqqa ega emas.

Ayrim daraja bildiruvchi so'zlar borki, ular uslubiy jihatdan bo'yoqqa ega bo'lib, ekspressivlik, ijobiy yoki salbiy xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun bu turdagi daraja bildiruvchi so'zlar o'z ichida yana ikkiga bo'linadi:

- 1.Ekspressiv bo'yoq bildiruvchilar

2. Subyektiv munosabat bildiruvchilar

Birinchi turdagi soʻzlar, asosan, gʻoyat, toza, bir, biram, xoʻp, katta, hadsiz, mutlaqo, naqadar, rosa, obdon kabilar.

Bular oʻzi bogʻlangan soʻzning maʼno darajasini arttirib, kuchaytirib, har biri oʻziga xos koʻtarinkilik ilova etadi. Bu esa oʻsha daraja bildiruvchi soʻzning ekspressivlik xususiyati demakdir.

Masalan: Yaqindagina ketgan onamni bir koʻrgim keldi, bir koʻrgim keldi (A.Muxtor). Biram sovuq hazil qiladi-yey, -dedi Fotima norozi bir ohangda (P.Tursun). Sakson ota ham rosa ezma boʻlib boryapti, deyishi turgan gap (“Toshkent haqiqati” gazetasidan). Taqsir! –Eshonxonning soʻzini boʻldi Tilmoch – gʻoyat muhim masala (Oybek).

Shu turga oid yuqorida sanalgan boshqa daraja bildiruvchi soʻzlar ham mazkur misollardagi kabi oʻzi bogʻlangan soʻzning maʼno darajasini oʻziga xos koʻtarinkilik bilan orttirib, kuchaytirib kelgan. Shuningdek, biram soʻzining xotin-qizlar nutqiga xosligi va boshqa shuning singari xususiyatlar mazkur soʻzlarning ekspressivlik kasb etishini koʻrsatadi. Bunday holdagi darja bildiruvchi soʻzlar har biri oʻziga xos xususiyati, daraja ottenkasi bilan farqlanib, biri ifodalangan maʼno darajasini ikkinchi bir soʻz aynan oʻsha holatda ifoda etishi mumkin emas.

Ikkinchi turga kiriuvchi yaʼni subyektiv munosabat boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar oʻzining qanday maʼnoli soʻzlarda bogʻlanishi va oʻzi ifoda etgan subyektiv munosabatga koʻra yana ikkiga ajraladi. Bular:

a) ijobiy boʻyoq bildiruvchilar;

b) salbiy boʻyoq bildiruvchilar;

-bagʻoyat, behad soʻzlari subyektiv munosabat boʻyogʻiga ega boʻlib, ular faqat ijobiy maʼnoli soʻzlarga bogʻlanib, uning maʼno darajasini orttirib, kuchaytirib keladi. Mana shu xususiyati bilan boshqa daraja bildiruvchi soʻzlardan farqlanadi.

Masalan: Bulutlarga yelka tiragan zanjirli togʻlar, sayroqi kakliklar, bularning barchasi bagʻoyat goʻzal (T.Sulaymon). Doʻstim Oqiljon! Xatingni olib behad xursand boʻldim (H.Ortiqov).

Bu misollardagi darja bildiruvchi soʻzlar ijobiy maʼnoli soʻzlarga bogʻlanib, uning maʼno darajasini orttirib, kuchaytirib kelgan. Agar aks holda goʻzal soʻzi oʻrnida xunuk soʻzi; xursand boʻlmoq oʻrnida xafa boʻlmoq kabi soʻzlar ishlatilganda edi, u holda bagʻoyat va behad soʻzlari bogʻlanmasdi. Buning sababi haqida keyingi bobda toʻxtalamiz.

Ikkinchi turi, yaʼni salbiy boʻyoqqa ega daraja bildiruvchi soʻz birgina oʻta soʻzi boʻlib, u badiiy adabiyotda salbiy maʼno boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlargagina bogʻlanib, uning maʼno darajasini orttirib, kuchaytirib kelishi bilan xarakterlanadi. Bu soʻz bagʻoyat va behad soʻzlariga ichki maʼno xususiyati bilan tamoman ziddir.

Masalan: Mo'ylovlari olifta qirqilgan jadidlar, ziyolilar, o'ta olifta, sabza mo'ylov, mag'rur kekkaygan boyvachchalar ko'p edi (Oybek).

Unitildi qishga tamom tayyorlik,

Ishni buzdi bu xil o'ta ayyorlik (T.To'la).

Bu gaplardagi o'ta so'zi salbiy xususiyatga ega bo'lganligi uchun, u ayyor, olifta so'zlariga juda mos kelgan va uning ma'no darajasini, ta'sirchanligini yana orttirib, kuchaytirib kelgan.

Uchinchi nuqtai nazar bo'yicha daraja bildiruvchi so'zlarni variantlarga egaligiga ko'ra turlarga ajratilishi kerak edi. Bunda ham daraja bildiruvchi so'zlar ikki turga ajraladi:

1. Variantsiz daraja bildiruvchi so'zlar;
2. Variantli daraja bildiruvchi so'zlar;

Birinchi turga kiruvchi daraja bildiruvchi so'zlar bir, biram, zo'r, ko'p, xo'p, katta, mutlaqo, qattiq, naqadar, nuqul, yanada, tag'in, tamomila, obdon, zir, nax, ming, eng kabilardan iborat bo'lib, ularning har biri faqat bitta ko'rinishi, formasi bilangina daraja bildiruvchi so'z sifatida qo'llanadi. Bu so'zlarning boshqacha formasi, varianti yo'q. Shuning uchun ham bular variantsiz daraja bildiruvchi so'zlardir.

Ikkinchi turga oid daraja bildiruvchi so'zlar g'oyat, behad, rosa, toza, juda, nihoyat va o'ta kabilardir. Bular o'z variantlariga ega bo'lib, variantlari vositasida o'zi bog'langan so'zning ma'no darajasini turli bosqichda orttirib, kuchaytirib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Masalan: Agar ja- ishlagingiz kelayotgan bo'lsa, anovi shlangni olib, gullarga suv quyung (U.Nazarov). U javob bergali ham qo'r qar edi, uningcha, ish juda nozik, g'oyatda qo'rqinchli edi (A.Qodiriy). bu jallodning psixologiyasi meni, yana menga o'xshash majruh komandirlarni benihoyat quvontirdi (Oybek). Turdivoy xalfa bilan o'taketgan munofiq Olaxo'ja mahsum ham asta tebranishib tomoshaga kelishdi (P.Tursun).

Bu kabi variantli daraja bildiruvchi so'zlar o'zining bir necha xil varianti bilan o'zi bog'langan so'zning ma'no darajasini turli bosqichda orttirib, kuchaytirib ifoda etadi. Bunday variantli daraja bildiruvchi so'zlar subyektiv bahoning jonli, ta'sirli va real ifodasi uchun katta ahamiyatga egadir. Mana shu subyektiv baho, ma'no darajasini turlicha bosqichda ifodalash zaruratining o'zi daraja bildiruvchi so'zlarning variantlanishini yuzaga keltirgan. Bularning ma'no xususiyatlari, farqlanishi, daraja kuchaytirishi haqida o'z o'rnida alohida aytib o'tamiz.

Xullas, tasdiq ma'nosi darajasini bildiruvchi so'zlar o'z semantik xususiyati, uslubiy bo'yoqliligi, variantlanishi nuqtai nazaridan klassifikatsiya qilinib, ular har biri o'z ichida ikkitadan turlarga ajralar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirtojdiyev M. *Hozirgi o'zbek adabiy tili. I jild.* –Toshkent: Universitet, 2007.

2. *Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. –Toshkent: 2009.*
3. *Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.*
4. *Mirzakarimova Z.D. Oybek asarlarida daraja bildiruvchi so'zlarning qo'llanilishi. «Oybek-o'zbek xalqining buyuk mutafakkiri» mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasining materiallari.-Angren,2005.23-24 may. -B.45-47.*

